Hujjat kodi: **CN30176656**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
# TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

F.L.AZIZOVA

Ma'lumot va nazorat uchun

**№04-03/-2160**
13 Oktabr 2023

**SH.A.BOYMURADOV**
Проректор

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: LI90857015

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy. Tel.: (998) 71-203-32-23, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

12.10.2023-yil
1/40-1/9-117-son

**Oliy ta'lim, akademik litsey va professional ta'lim muassasalari rahbarlariga**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalariga**

Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi xorijda bakalavriat, magistratura va doktorantura yo'nalishlarida ta'lim olish bo'yicha 2023-yilgi 2-ochiq stipendiya tanlovini e'lon qildi.

Mazkur tanlovlarga hujjatlar joriy yilning 10-oktyabr kunidan 10-noyabr kuniga qadar jamg'armaning rasmiy sayti (http://admission.eyuf.uz) orqali qabul qilinadi.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini xorijiy tajribalar orqali oshirish, shuningdek, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar orasida xorijda ta'lim olganlar salmog'ini ko'paytirish maqsadida, **Sizdan:**

- mazkur stipendiya tanlovida rahbarligingizdagi ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan yosh pedagoglarni, tadqiqotchi-izlanuvchilarni hamda talaba-o'quvchilar (oliy ta'lim muassasasining har bir fakultetidan kamida 3 nafardan hamda akademik litsey va professional ta'lim muassasalaridan kamida 2 nafardan nomzodlar)ni "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan nomzodlarga qo'yilgan talablarni to'liq bajargan holda ishtirok etishini ta'minlashingiz;

- stipendiya tanlovida ishtirok etish uchun hujjat topshirgan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni joriy yilning 11-noyabr kuni soat 17-00ga qadar ilovadagi jadvalga muvofiq vazirlikka (97-753-83-36 telegram manziliga) yuborishingiz so'raladi.

Ilova: 1 varaqda.

**Vazir** **I.Abduraxmonov**

Ijrochi: F.Esanboboyev
Tel: 71-207-16-87

Ilova

**“El-yurt umidi” jamg‘armasining 2023-yilgi 2-ochiq stipendiya tanlovida ishtirok etish uchun hujjat topshirgan nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni**

| № | Nomzodning F.I.Sh. | Faoliyat olib borayotgan fakulteti | Mutaxassisligi | Xorijda ta’lim olish dasturi (bakalavriat, magistratura va doktorantura) | Xorijda ta’lim olish uchun tanlagan ta’lim sohasi | Xorijiy davlat va ta’lim muassasasi nomi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Toshkent davlat texnika universiteti** | | | | | | |
| 1. | O‘ralov Janibek Durbekovich | Muhandislik texnologiya fakulteti | Gidroenergetika | doktorantura | Muhandislik ishi | AQSH, Kaliforniya texnologiya instituti |